

INDONEZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI O‘RGATISHDA TIL KO‘NIKMALARI VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Eshmurodova Hilola Hasan qizi

3rd course student, group 2209

UZSWLU, English Language -1 faculty

Scientific advisor: Avazova Feruza Bahodirovna,
senior teacher of the second foreign language department

Annotatsiya. Mazkur maqolada og‘zaki nutqni o‘stirishda interaktiv metodlardan foydalanish, ta’lim metodlarini tanlash tamoyillari hamda indonez tilida gapirish ko‘nikmalarida qo‘llaniladigan samarali metodlar yoritilgan. Metodlar yordamida talabalar fikrni aniq va erkin bayon qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, og‘zaki nutqni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va o‘qituvchining innovatsion yondashuvlari muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon, talabalar nutq faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va til ko‘nikmalarini puxta egallashlariga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: interaktiv metod, ta’lim, faol ishtirok, dars samaradorligi, o‘quvchi faolligi, suhbat qurish, sun‘iy intellekt, pedagogik mahorat
Annotation. This article examines the use of interactive methods in improving oral communication, the principles of selecting teaching strategies, and the effective methods applied to developing Indonesian speaking skills. These methods help students to form the ability to express thoughts clearly and fluently. The article also highlights the significant role of modern technologies and innovative teaching approaches in developing oral speech. This process promotes students’ speech activeness, independent thinking, and mastery of language skills.

Keywords: interactive method, education, active participation, lesson effectiveness, student engagement, conversation skills, artificial intelligence, teaching proficiency

Kirish

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun pedagog dars o‘tish jarayonida grammatikani tushuntirishda yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanishi, yordamchi o‘quv vositalari (ko‘rgazmali qurollar, turli rasmlar, tarqatma materiallar, o‘qitishning texnik vositalari, audio-video) ni har doim takomillashtirib bormog‘i kerak, hamda dars jarayonida komp’yuter texnologiyalardan keng foydalanish chet tilini o‘rganayotgan talabalarga darsning yangi metodda borishi juda qiziqarli buladi. Ana shunday tashkil etilgan dars jarayonida talabalarning chet tiliga bo‘lgan qiziqishlari ortib, ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko‘nikmalari takomillashini oshiradi.

Indoneziya tilida og‘zaki nutqning ahamiyati juda katta. Bu nafaqat kunlik muloqotda, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham muhim rol o‘ynaydi. Bitiruv loyiha ishining materiallaridan universitetlar, xorijiy til va adabiyot, filologiya

va tillarni o'qitish (indonez tili)" ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar va indonez tili dars jarayonida o'qituvchi talabalarni og'zaki nutqini o'stirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Og'zaki nutqni o'stirish uchun turli metodlar va usullarni qo'llash mumkin, jumladan, rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar, taqdimotlar va boshqalar. Talabalar uchun o'zaki nutqni rivojlantirishda eng muhim narsa — ularning o'z fikrlarini erkin va aniq ifoda etish imkoniyatini yaratishdir.

Xorijiy tilni puxta o'zlashtirgan mutaxassislariga talab katta bo'lgan zamonaviy dunyoda uni har tomonlama o'rganish barcha ko'nikmalarni puxta shakllantirishni taqozo etadi. Til tashuvchilar darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar talabalarning, ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan mashq, topshiriq va darslarni tashkil qilishi va til o'rganish jarayonida an'anaviy o'qituvchi emas, balki fasilitator (ko'mak beruvchi) rolini bajarishi kerak bo'ladi. Shuni ta'kidlash muhimki, bugungi kun talabi ham ta'lim mazmuni va hajmini cheksiz kengaytirishga yo'l bermay, balki shaxsni mavjud muammolarni noan'anaviy tarzda yechishga tayyorlashni taqozo etadi. Talabaning o'quv faoliyatini takomillashtirish, ya'ni uning intellektual fikrlash qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy natijasi bo'lishi lozim. Ushbu til ko'nikmalari: tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading), yozish (writing). Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalarning har birining o'zni katta. Shunday ekan, ularni o'zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Og'zaki nutq ko'nikmalari tilni og'zaki shaklda ifodalash qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar, odatda, so'zlashuv va muloqotda foydalidir. Talabalar o'zlarining fikr-tuyg'ularini ifoda etishga, qiziqishlari va hayotiy faoliyatlari haqida suhbatlashishga hamda ularni boshqalar fikri bilan taqqoslashga imkoniyat yaratib beradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z bilimlarini talabalariga yetkazar ekan, ularning o'zlashtirish darajasini o'rganadi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi, ularning sabablarini tushunib, bartaraf etish uchun tegishli choralar ko'radi. Mahoratli o'qituvchi bu jarayonda ta'limning mazmunini yanada boyitadi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish o'qituvchini o'z ustida ishlashga, ijod qilishga, izlanish va pedagogik mahoratini o'stirishga undaydi. Mahoratli o'qituvchi talabalarning o'zaki nutqini o'stirishda ustuvor usullar, sifatli podkastlar, audio kitoblar va suhbatlarni tinglash, yangi so'z va iboralarni yozib olib, ularni kundalik nutqda ishlatishga harakat qilish, har kuni ma'lum bir mavzuda o'z fikrini og'zaki bayon qilish kabi yondashuvlar samarali ekanligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, interaktiv darslar yordamida talabalar o'zaro fikr almashish va mavzularni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi

tomonidan videokonferensiyalar yoki online darslar tashkil qilish ham talabalar bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish lozimki, zamonaviy texnologiyalar oʻzaki nutqni oʻstirishda katta rol oʻynaydi. Interaktiv doskalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar orqali talabalar real vaqtda suhbatlarga qoʻshilishlari, videolarni tomosha qilishlari va nutqni mashq qilishlari mumkin. Bu esa talabalarning til oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini yanada orttirib, turli interfaol usullar va grafik organayzerlar orqali samarali va sifatli darslar tashkil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet til oʻqitish metodikasi: Chet tillar oliy oʻquv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: Oʻqituvchi, 1996. – 368 b.
2. Abulkasimovna, E. Z., & Leonidovna, M. N. (2023, March). THE LEXICAL-SEMANTICAL USAGE OF PROFESSIONAL LEXEMES IN “UTGAN KUNLAR”(“ PAST DAYS”) BY ABDULLA QADIRI. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 20-22).
3. Ahmedov A. Notqlik san’ati – T.: «Oʻzbekiston», 1967.
4. Ashirova, X., & Mamatkulova, F. (2024). Applying different teaching methods for enhancing the reading skills of elementary learners. O ‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 155-160.
5. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2003.
6. Erdanova, Z. (2019). Onomastic is a mirror culture. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 149-152).
7. Eshonqulov, J., & Sultonova, M. (2025). DIGITAL MEDIA AND COPYRIGHT: LEGAL DISPUTES AND AGREEMENTS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1149-1154.
8. R. Ramly, Amirullah Abduh. (2018). “Exploring Cognitive Concepts in the National Assessment of the Indonesian Language” The New Educational Review. – Indonesia., 142– 146.
9. Rashidova, G., & Fariza, N. (2024). THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(3), 93-95.
10. Rashidova, G., & Munira, I. (2025). THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON LANGUAGE DEVELOPMENT. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(4), 151-154.
11. SULTONOVA, M. (2024). On the issue of critical thinking.
12. Sultonova, M. (2024, October). Features of Critical Thinking Skills for B1 Level Learners. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 786-790).
13. Sultonova, M., & Usmonaliyeva, M. (2024). Pragmalinguistics: exploring the social dynamics of language use. O ‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 633-638.